



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNAZAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav
jamg'armasidagi qarzdor ulushini
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI.
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

134 ISLOMOV BUNĒD OCHILOVICH

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключающие преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА

Ограничение права на молчание
в уголовном судопроизводстве:
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of
digital information as proof in criminal cases in
Republic of Kazakhstan

175 URALOV SARBON SARDOROVICH

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC 347.9(042)(5751)

VOYAGA YETMAGANLAR SOHASIDA QONUNIYLIKNI TA'MINLASHDA PROKUROR NAZORATI VA IDORAVIY NAZORAT O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Ibragimov Diyorbek Shuhrat o'g'li,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi
Akademiyasi tayanch doktoranti
e-mail: diyorbekibragimov808@gmail.com
ORCID: 0000-0003-1106-6972

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, mazkur sohada qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlari bilan bevosita vakolatli idoralar o'rtasida o'zaro hamkorlik masalalari bayon etilgan. Xususan, prokuror nazorati, idoraviy nazorat tushunchalari hamda ular o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, sohada qonuniylikni ta'minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat faoliyatidagi ayrim kamchilik va muammolar tizimli ravishda tahlil etilgan. Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi vakolatli vazirlik va idoralarning idoraviy nazorat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq kamchiliklar, shuningdek, ularning faoliyatidagi qonun buzilishi holatlari amaliy misollar bilan yoritib berilgan. Qayd etilishicha, vazirlik va idoralarda idoraviy nazoratning sust tashkil etilganligi nafaqat voyaga yetmaganlar, balki xodimlar tomonidan ham qonun buzilishi holatlari sodir etilishiga ham sabab bo'layotganini ko'rsatmoqda. Shuningdek, prokuratura organlari va idoralar o'rtasida sohada qonuniylikni ta'minlash, qonun buzilishi holatlari va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda bartaraf etishda idoralararo ma'lumot almashish borasida doimiy hamkorlik o'rnatish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati, idoraviy nazorat, vakolatli vazirlik va idoralar, idoralararo hamkorlik, idoralararo ma'lumot almashish, voyaga yetmaganlar, prokuror tekshiruvi, nazorat tadbirlari, qonunlar ijrosi ustidan monitoring olib borish, taqdimnoma.

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ОРГАНОВ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА И ВЕДОМСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАКОННОСТИ В СФЕРЕ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

Ибрагимов Диёрбек Шухрат угли,
докторант Академии Генеральной прокуратуры
Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы взаимодействия в нашей стране органов прокуратуры и компетентных органов в сфере защиты прав и законных интересов несовершеннолетних, обеспечения законности в этой сфере. В частности, с научно-теоретической и практической сторон были проанализированы понятия прокурорского надзора и ведомственного контроля, а также различия между ними. Также системно исследованы

некоторые недостатки и проблемы в деятельности органов прокуратуры и ведомственного контроля по обеспечению законности в этой сфере. Кроме того, на практических примерах выделены недостатки в организации ведомственной надзорной деятельности министерств и ведомств, отвечающих за права и свободы несовершеннолетних, а также нарушения в их деятельности. Отмечено, что слабая организация ведомственного контроля в министерствах и ведомствах свидетельствует о том, что нарушают законы не только несовершеннолетние, но и работники. Кроме того, разработаны предложения и рекомендации по налаживанию регулярного взаимодействия органов прокуратуры и органов по обеспечению законности в сфере, выявлению и устранению нарушений законодательства и их причин, обмену информацией между органами.

Ключевые слова: прокурорский надзор за исполнением законодательства о несовершеннолетних, ведомственный контроль, компетентные министерства и ведомства, межведомственное сотрудничество, межведомственный обмен информацией, несовершеннолетние, прокурорская проверка, контрольные мероприятия, контроль за исполнением законов, представления.

ISSUES OF IMPROVING THE INTERACTION OF PROSECUTORIAL SUPERVISION AND DEPARTMENTAL CONTROL IN ENSURING THE RULE OF LAW IN THE FIELD OF JUVENILES

Ibragimov Diyorbek Shukhrat ugli,

PhD student of the Academy
of the General Prosecutor's Office
Republic of Uzbekistan

Abstract. This article discusses the issues of interaction between the prosecutor's office and the competent authorities in the field of protecting the rights and legitimate interests of juveniles in our country, ensuring the rule of law in this area. In particular, the concepts of prosecutorial supervision and departmental control, as well as the differences between them, were analyzed scientifically, theoretically and practically. Also, systematically analyzed some of the shortcomings and problems in the activities of the prosecutor's office and departmental control to ensure the rule of law in this area. In addition, shortcomings in the organization of departmental supervisory activities of ministries and departments responsible for the rights and freedoms of juveniles, as well as violations in their activities, are highlighted in practical examples. It is noted that the weak organization of departmental control in ministries and departments indicates that violations of the law are committed not only by juveniles but also by employees. In addition, proposals and recommendations have been developed on establishing regular interaction between the prosecutor's office and law enforcement agencies in the field, identifying and eliminating violations of the law and their causes, and exchanging information between bodies.

Keywords: prosecutor's supervision over the execution of law on juveniles, departmental control, competent ministries and departments, interdepartmental cooperation, interdepartmental exchange of information, juveniles, prosecutor's inspection, control measures, control over the execution of laws, representations.

Kirish

Qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish prokuratura organlarining asosiy vazifalari hisoblanadi. Bu borada belgilangan

vazifalarni bajarishda prokuror nazorati muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ijtimoiy hayotning tez sur'atlarda rivojlanib borishi, ayniqsa, mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, ularning ta'lim olishi,

sogʻlom rivojlanishi, normal hayot kechirishi borasida bir qator muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yetim bolalar va ota-onasi qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga turar joylar ajratish, ularni ijtimoiy muhofaza qilish, shuningdek, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qoʻllab-quvvatlash, bilim va kasb-hunar oʻrganishga ehtiyoji va ishtiyoqi boʻlgan xotin-qizlar va yoshlar boʻyicha tegishli “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari joriy etildi. Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Bola huquqlarining kafolatlarini taʼminlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6275-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon bilan mutasaddi idoralarga bola huquqlari kafolatlarini taʼminlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish, bolalar orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar sodir etilishining barvaqt oldini olish, nogironligi boʻlgan bolalar va ota-onasi qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash borasida bir qator muhim vazifalar belgilab berildi.

Tadqiqotning maqsadi

Ushbu tadqiqotning asl maqsadi Oʻzbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini taʼminlashda prokuratura organlari va mutasaddi idoralar oʻrtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalarini oʻrganish, shuningdek, mazkur sohani takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili

Oʻzbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar sohasida qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish va uning huquqiy asoslarini takomillashtirishga oid masalalarni B.X. Poʻlatov va S.M. Astonov [1], D. Turaxonov va boshqa mualliflar jamoasi [2] voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror

nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslari, A.R. Rahmonov [3] voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro standartlari, N. Doʻsmuxamedova [4] Oʻzbekiston milliy qonunchiligida bolaning huquqiy maqomi, A.R. Muminov, M.A. Tillaboyev, G. Yuldashevalar [5] bola huquqlari yuzasidan tadqiqot oʻtkazishgan.

Shuningdek, A.S. Arutyunyan [6] hamda A.V. Ermakovlar [7] voyaga yetmaganlar sohasida prokuror nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, Y.A. Panfilova [8] prokuror nazorati va idoraviy nazorat oʻrtasidagi aloqalar, boshqaruv asoslari, N.S. Kashtanova va I.B. Shegebaev [9] prokuror nazorati va idoraviy nazorat oʻrtasidagi munosabatlar masalalarini tadqiq qilishgan.

Material va metodlar

Tadqiqot ishi davomida Oʻzbekiston Respublikasida prokuratura organlarining voyaga yetmaganlar sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan, shuningdek, voyaga yetmaganlar sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli vazirlik va idoralarda qonun buzilishi holatlari amaliy misollar bilan tahlil etilgan.

Tadqiqot ishi tizimli-tahliliy, qiyoslash, statistik usullardan foydalangan holda amalga oshirilgan.

Tadqiqot natilari

Bizningcha, bu kabi vazifalarning toʻliq va sifatli ijro etilishini taʼminlash hamda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish vazirlik va idoralarning idoraviy nazorat faoliyatining toʻgʻri tashkil etilganligi bilan bogʻliq. Zero, vazirlik va idoralarda qonun hujjatlariga rioya etilishini taʼminlash maqsadida idoraviy nazorat mexanizmi qanchalik yaxshi ishlasa, ularda qonun buzilishi holatlari ham kam uchraydi. Bu borada D.Mirazovning [10, 40-b.] “demokratik huquqiy davlatda nazorat vakolatlari davlat hokimiyatining barcha tarmoqlariga xosdir”, deb bildirgan fikrlariga qoʻshilgan holda, voyaga yetmaganlar sohasidagi vakolatli vazirlik va idoralar sohada

qonuniylikni ta'minlash maqsadida idoraviy nazorat funksiyasidan samarali foydalanish tizimini yaratishi lozim.

Bizningcha, bu kabi vazifalarning to'liq va sifatli ijro etilishini ta'minlash hamda voyaga yetmaganlarni ijtimoiy himoya qilish vazirlik va idoralarning idoraviy nazorat faoliyati to'g'ri tashkil etilganlik darajasiga bog'liq. Zero, vazirlik va idoralarda qonun hujjatlarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida idoraviy nazorat mexanizmi qanchalik yaxshi ishlasa, ularda qonun buzilishi holatlari ham kam uchraydi.

Bundan tashqari, sohada qonuniylikni ta'minlash samaradorligining muhim omillaridan biri prokuror nazorati va idoraviy nazorat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik qay darajada tashkil etilganiga bevosita bog'liqdir. "Idoraviy nazorat" tushunchasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "idoraviy" tushunchasi bir tashkilot tizimidagi munosabatlarga nisbatan ishlatiladi. Shunga ko'ra, davlat boshqaruvidagi idoraviy nazorat – bu byudjet mablag'larining asosiy iste'molchilari ustidan nazorat yoki ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazoratdir [11, 68-b.]. Darhaqiqat, prokuror nazoratining ham, idoraviy nazoratning ham asosiy maqsadi qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonuniylikni ta'minlash hisoblanadi. Fikrimizcha, prokuror nazorati prokuratura organlari tomonidan nazorat ostidagi subyektlarida qonun hujjatlari ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish hisoblansa, idoraviy nazorat esa ma'lum bir davlat idorasi tomonidan o'zining vazifa va funksiyalarini amalga oshirish jarayonida qonun buzilishi holatlarini barvaqt aniqlash, bunday xavflarning oldini olish hamda qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish hisoblanadi.

Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, prokuror nazorati va idoraviy nazorat o'rtasidagi o'zaro farqli jihatlar borasida bir qator fikrlar ilgari suriladi. Jumladan, N.S. Kashtanova hamda Shegebayevlarning

[12, 172-b.] "Prokuror nazorati va idoraviy nazoratni ularning nisbiy mustaqilligi nuqtai nazaridan turli subyektlar faoliyatining alohida yo'nalishlari sifatida ko'rib chiqish to'g'ri bo'ladi. Haqiqat shundaki, tahlil qilinayotgan huquqiy hodisalar qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilish kafolatlarini ta'minlashning yagona tizimini tashkil etadi", deb bildirgan fikrlari o'rindir.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning mustahkam huquqiy tizimi yaratilganligiga qaramay, ushbu sohada hali kutilgan natijalarga erishilgani yo'q. Xususan, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida vakolatli davlat idoralari faoliyatida qonun buzilishi, shuningdek, ishlarni noto'g'ri tashkil etish kabi holatlar hanuzgacha uchramoqda. Xususan, Bosh prokuraturaning Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga ko'ra, 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat yo'nalishi bo'yicha tekshirish obyektlarida 2000 dan ortiq tekshirishlar o'tkazilgan bo'lib, 10000 ga yaqin qonun buzilishi holatlari aniqlangan. Prokuror protestiga binoan, 500 ga yaqin qonunga zid hujjatlar bekor qilingan, 5000 dan ziyod qonunga zid hujjatlar esa o'zgartirilgan. Shuningdek, prokuror qarori va taqdimnomasi bilan 6000 ga yaqin shaxslar intizomiy, 3500 yaqini ma'muriy, 200 dan ortig'i esa moddiy javobgarlikka tortilgan. Bundan tashqari, 150 ga yaqin jinoyat ishlari qo'zg'atilib, 120000 ga yaqin, shu jumladan, 110000 dan ortiq voyaga yetmaganlarning huquqlari tiklangan [13].

Tahlil etilgan statistik ma'lumotlar prokuratura organlari hamda voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi boshqa idoralar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, ushbu sohada qo-

nun buzilishlarga qarshi kurashishni yanada kuchaytirish bo'yicha o'zaro hamkorlik masalalarini takomillashtirish lozim ekanligini ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 22-moddasiga ko'ra, prokuror davlat organlari, harbiy qismlar, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalari rahbarlari va boshqa mansabdor shaxslaridan ular tasarrufidagi korxonalar, muassasalar, tashkilotlar faoliyatini tekshirish, taftish o'tkazish, idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilish vakolatiga ega. Zero, prokuratura organlari hamda davlat idoralari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari ko'p hollarda prokuratura organlari tomonidan turli sohalarda o'tkaziladigan tekshirish, monitoring va boshqa nazorat tadbirlarida idora va tashkilot xodimlarini mutaxassis sifatida jalb qilish holatlarida ko'zga ko'rinadi. Bu esa voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlarini ta'minlovchi qonun hujjatlari ijrosini tekshirishda idoralar mutaxassislaridan foydalanish, ushbu organlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning muhim va ahamiyatligini anglatadi.

Ta'kidlash joizki, prokuror nazorati va idoraviy nazorat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik nafaqat prokuratura organlari tomonidan voyaga yetmaganlar sohasida tekshirishlarni amalga oshirishda, balki sohada qonunlar ijrosi ustidan muntazam nazoratni tashkil etishda ham muhim ahamiyatga ega. Fikrimizcha, mazkur hamkorlik bevosita hamkorlikda nazorat tadbirlarini amalga oshirish, hamkorlikda targ'ibot va profilaktik tadbirlar tashkil etish, idoralar o'rtasida axborot almashinuvini tizimli ravishda yo'lga qo'yish kabi shakllarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar sohasida qonunlar ijrosini nazorat qilishda, qonun buzilishi holatlari kelib chiqishining oldini olishda o'zining muhim samarasini beradi. Bu borada L.Y. Akimovning

"Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qonun ustuvorligini ta'minlash, inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha biror-bir asosiy masalani har qanday yagona organ sa'y-harakatlari bilan hal qilib bo'lmaydi" [14, 10-b.], deb bildirgan fikrlari o'rinlidir. Darhaqiqat, voyaga yetmaganlarning huquqlari kafolatlarini ta'minlash, ularga aloqador ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar salmoqli darajada bo'lib, ularning ijrosini ta'minlash hamda nazorat qilishda nafaqat prokuror nazorati, balki idoraviy nazoratning o'rni ham muhim hisoblanadi. Zero, prokuror nazorati va idoraviy nazoratning o'zaro aloqasi sohada qonun ustuvorligini ta'minlash, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ishonchli vositasi bo'lib xizmat qilishi darkor.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, hozirgi kunda voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta'minlashda prokuratura organlari bilan idoralar o'rtasida o'zaro aloqalar yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ya'ni ular o'rtasida sohada qonuniylikni ta'minlash, qonun buzilishi holatlari va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash hamda barta-raf etishda idoralararo ma'lumot almashish borasida doimiy hamkorlik mavjud emas. Bu esa, o'z navbatida, voyaga yetmaganlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan nazorat qiluvchi organlar, davlat idoralari tomonidan huquqbuzarliklarni yashirish, kamaytirib ko'rsatish kabi holatlarni keltirib chiqaradi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, qonunlar ijrosini nazorat qilishda, voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda prokuratura organlari va idoralar o'rtasida o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan normalarning qonunchilikda o'z aksini topishi maqsadga muvofiq, nazarim-izda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 22-moddasiga prokuror qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish jarayonida o'z vakolatlari doirasida boshqa davlat

idoralari bilan qonuniylikni ta'minlash va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda o'zaro hamkorlikni amalga oshirishi haqida gi normani kiritish lozim. Rivojlangan xori jiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash da prokuratura organlari va davlat idoralari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalalari qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Xusu san, Belarus Respublikasining "Prokuratu ra to'g'risida"gi [15] Qonuni 17-moddasiga asosan, prokuratura organlari qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlashda boshqa dav lat idoralari bilan hamkorlikni amalga oshir sa, Gruziya Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi [16] Qonunida esa prokuratura organlarining davlat idoralari, tashkilotlar bi lan o'zaro aloqalariga bag'ishlangan alohida 32-modda mavjud bo'lib, idoralar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Bosh prokuror tashkilotlar, muassasalar, vako latxonalar bilan muayyan masalalar bo'yicha o'zaro hamkorlik to'g'risida memorandumlar tuzish vakolatiga ega.

Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsa tadiki, prokuror nazorati va uni amalga os hirishda idoralararo hamkorlik masalalari yuzasidan turli xil fikrlar bildiriladi. Xususan, M.I. Eriashvili [17, 47-b.] prokuratura organ larining davlat idoralari bilan hamkorligini prokuror nazorati shakllaridan biri sifatida e'tirof etsa, Y.N. Turiginning [18, 95-b.] fikri cha, o'zaro hamkorlik chegaralarining asosiy me zoni "qayerda prokuror nazorati bosh lansa, shu yerda o'zaro hamkorlik tugaydi" formulasi bilan belgilanadi. Nazarimizda, Y.N. Turiginning fikrlariga to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Xususan, prokuratura organlari voyaga yetmaganlar sohasida qonunlar ijro si ustidan prokuror nazoratini tashkil etish da idora va tashkilotlarning idoraviy nazorat hujjatlariga, tekshirish yo'nalishi bo'yicha tegishli mutaxassislariga ehtiyoj sezadi. Zero, voyaga yetmaganlar sohasida qonunchilik ijrosi ustidan nazorat doirasining keng qam rovligi, ya'ni voyaga yetmaganlarning ijtimoiy

himoyasi, ta'lim olishi, mehnatni muhofaza qilish, sog'likni saqlash, vasiylik va homiylik, farzandlikka olish bilan bog'liq muhim ma salalar prokuratura organlarining idoralar va tashkilotlar bilan sohada qonuniylikni ta'minlashda muntazam ravishda o'zaro alo qalar olib borishni taqozo etadi. Bu borada D. Turaxonov va boshqa mualliflar jamoasi ning [2, 11-b.] "voyaga yetmaganlar sohasiga oid normativ hujjatlar ijrosining samaradorli gi ko'p holatlarda faoliyati o'zaro kesishuvchi ikki va undan ortiq organlar, davlat idoralari va boshqa tashkilotlarning o'zaro hamkorli gi va ushbu hamkorlikning muvofiqlashtiril ganlik darajasiga bog'liqdir", deb bildirgan fikrlariga qo'shilamiz.

Bundan tashqari, voyaga yetmaganlarga oid qonun hujjatlari ijrosining mutasaddi idoralar tomonidan ijro etilishida idoraviy nazorat orqali aniqlangan qonun buzilishi ho latlari to'g'risidagi ma'lumotlar, monitoring xulosalarini prokuratura organlariga taqdim etib borish mexanizmini joriy etish lozim.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 135-moddasiga ko'ra, soliq, boj xona organlari va boshqa vakolatli organ lar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to'g'risidagi qonunchilik bu zilishlari, o'zlari olib borayotgan soliq tek shiruvlari haqidagi o'zida mavjud material lar to'g'risida bir-birini xabardor qiladi. Shu ningdek, mazkur organlar o'z zimmasiga yuk latilgan vazifalarni bajarish maqsadida bosh qa zarur axborot bilan almashishni amalga oshiradi. Shu nuqtai nazardan olib qaragan da, voyaga yetmaganlarning huquq va man faatlari amalga oshirilishini ta'minlovchi Xalq ta'limi vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi, Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya kabi davlat idoralarining faoliyatlarini tartib ga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarda idoralar tomonidan sohaviy qonun hujjatlari ijrosi bajarilishining ahvoli, audit tekshiruv natijalarini prokuratura organlariga taqdim etib borish bo'yicha normalar kiritish lozim. Shuningdek, ushbu normativ hujjatlarda

idoralar tomonidan o'tkazilgan nazorat tadbirlarida jinoyat hamda ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari aniqlangan taqdirda, tegishli yig'ma hujjatlarni ular rasmiylashtirilgandan so'ng belgilangan tartibda huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yuborish tartibini ham joriy etish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikning barqaror ta'minlanishi kafolatlari bo'lib xizmat qiladi, nazarimizda.

Bundan tashqari, vazirlik va idoralar hamda ularning quyi tizimlari tomonidan idoraviy nazorat orqali aniqlangan qonun buzilishi holatlari yuzasidan qabul qilingan hujjatlar, shuningdek, idoralarning buyruqlar, farmoyish va qarorlari qonuniyligini prokuratura organlari tomonidan doimiy ravishda o'rganib borish mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

Xulosalar

Fikrimizcha, nafaqat tekshirishlarda, balki prokuror nazoratini amalga oshirishda doimiy ravishda bu kabi o'rganishlar mutasaddi vazirlik va idoralar faoliyati, shuningdek, idoraviy nazorat natijalari qonuniyligi, sifatdorligini ta'minlab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqarishda, sohada qonun ustuvorligini ta'minlashda prokuror nazorati samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, prokuratura organlari tomonidan davlat idoralarida qonuniylikni ta'minlash maqsadida doimiy ravishda monitoring olib borish tizimini qonun hujjatlari normalariga kiritish maqsadga muvofiq. Xususan, voyaga yetmaganlar sohasida qonunlar ijrosi ustidan monitoring olib borish bevosita prokuratura organlari va vakolatli davlat idoralari o'rtasidagi idoraviy nazorat hujjatlarini tahlil qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Monitoring olib borish, idoralarda voyaga yetmaganlar sohasidagi qonun buzilishlar va boshqa huquqbuzarliklar aniqlanganda, prokuratura organlariga xabar berish va yuborish bo'yicha

qo'shma tartiblar asosida tartibga solinishi maqsadga muvofiq. Bizningcha, voyaga yetmaganlar sohasida qonun hujjatlari ijrosi ustidan doimiy ravishda monitoring olib borish ushbu sohada prokuror nazorati, jumladan, prokuror tekshiruvining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining "Prokuror nazorati" deb nomlangan III bo'lim 1-bobini alohida 211-modda bilan to'ldirish taklif etiladi.

211-modda. Qonunlar ijrosi ustidan monitoring olib borish

"Qonunlar ijrosi ustidan monitoring olib borish, vazirlik va idoralar tomonidan doimiy ravishda taqdim etib boriladigan statistik va boshqa ko'rsatkichlar idoraviy nazorat ma'lumotlari asosida kompleks ravishda tahlil qilish orqali amalga oshiriladi".

Qonunlar ijrosi ustidan monitoring olib borish qonun buzilish holatlarini nafaqat tekshirishlar, balki real vaqt rejimida ham aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini qo'llashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni qayd etib o'tish joizki, voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda bevosita vakolatli idoralarning idoraviy nazorat funksiyasini takomillashtirish, shuningdek, sohada qonun ustuvorligini ta'minlashda prokuratura organlari hamda idoralar o'rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini shakllantirish lozim. Voyaga yetmaganlar sohasidagi vakolatli idoralarning idoraviy nazorat faoliyati takomillashuvi hamda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o'rtasidagi o'zaro hamkorlik sohada prokuror nazorati samaradorligi oshishida bir qancha ijobiy natijalar beradi.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, vazirlik va idoralarning idoraviy nazorat faoliyatini takomillashtirish, eng avvalo, faoliyatning prokuror nazorati bilan uyg'unlikda rivojlantirishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Negaki

prokuror nazorati va idoraviy nazorat faoliyatida kompleks yondashuv mavjud bo'lmagan, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini buzilishining oldini olish, sohada qonunlar ijrosi ustidan nazorat samaradorligini oshirishga erishishning imkoni yo'q.

REFERENCES

1. Po'latov B.X., Astonov A.C. Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazorati [Prosecutor's supervision over the execution of legislation on minors]. Tashkent, Lesson press Publ., 2018.
2. Turaxonov D. Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini tashkil etish [Organization of Prosecutor's supervision over the execution of legislation on minors]. Tashkent, Impress Media Publ., 2021.
3. Rahmonov A.R. Voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishning xalqaro-huquqiy masalalari. Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar [International legal issues of protection of the rights of juveniles: problems and solutions]. Tashkent, Konsauditinform-Nashr Publ., 2008.
4. Do'stmuhammedova N. O'zbekiston milliy qonunchiligida bolaning huquqiy maqomi. Voyaga yetmaganlar va yoshlarning huquqlarini himoya qilish tizimi: muammolar va yechimlar [Legal status of a child in the national legislation of Uzbekistan. The system of protection of the rights of juveniles and youth: problems and solutions]. Tashkent, Konsauditinform-Nashr Publ., 2008.
5. Muminov A.R., Tillaboyev M.A., Yuldasheva G. Bola huquqlari. [Children's rights]. National Center for Human Rights of the Republic of Uzbekistan, 2019, 410 p.
6. Arutyunyan A.S. Prokurorskiy nadzor za ispolneniem zakonodatelstva o nesovershennoletnix (problem teorii i praktiki) [Prosecutor's supervision over the execution of legislation on minors (problem of theory and practice)]. PhD thesis. Moscow, 2012.
7. Ermakov A.V. Organizatsiya prokurorskovo nadzora v sfere zashitiy prav nesovershennoletnih [Organization of prosecutorial supervision in the field of the protected rights of minors]. PhD thesis. Moscow, 2007.
8. Panfilova Y.A. Sootnoshenie prokurorskogo nadzora i vedomstvennogo kontrolya: upravlencheskiy aspekt [Correlation of prosecutor's supervision and departmental control: managerial aspect].
9. Kashtanova N.S., Shegebaev I.I. Prokurorskiy nadzor i vedomstvennyy kontrol: vopros sootnosheniya [Prosecutor's supervision and departmental control: the question of correlation]. *Bulletin of Omsk University*, Series Right, 2018, no. 2 (55), pp. 170-174.
10. Mirazov D. Nazoratning mohiyati, xususiyatlari va tasniflanishi [The essence, characteristics and classification of control]. *Bulletin of Higher Education Courses of the General Prosecutor's Office of the Republic of Uzbekistan*, 2015, no. 2, p. 40.
11. Larin S.V. Razvitie vedomstvennogo kontrolya kak uslovie realizatsii rezultativnogo byudjetirovaniya v Rossii [Development of departmental control as a condition for the implementation of effective budgeting in Russia]. *Bulletin of the Adyge State University*, Series 5, Economy, 2011, p. 68.
12. Kashtanova N.S., Shegebaev I.B. Prokurorskiy nadzor i vedomstvennyy kontrol: vopros sootnosheniya [Prosecutor's supervision and departmental control: the question of correlation]. *Bulletin of Omsk University*, Right, 2018, no. 2, 172 p.
13. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosarining 2021-yil 10-oktabrdagi 7-2567959/21-sonli xati doirasida Bosh prokuraturaning Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunchilik ijrosi ustidan nazorat boshqarmasining hisobot ma'lumotlaridan olingan [According to the letter of the

General Prosecutor of the Republic of Uzbekistan dated January 29, 2021 No. 7-180861/21, it is taken from the report of the Office for supervision of the execution of the law on juveniles of the General Prosecutor's Office].

14. Akimov L.Y. Deyatel'nost' prokuraturi po obespecheniyu zakonnosti v sfere yelektroenergetiki [The activities of the prosecutor's office to ensure the rule of law in the field of electric power industry]. Abstract of PhD thesis. Moscow, 2010, p. 10.

15. Law of the Republic of Belarus dated January 6, 2009 No. 7-3. National Register of Legal Acts of the Republic of Belarus, 2009, No. 16, 2/1559. H10900007; Law of the Republic of Belarus dated December 3, 2009 No. 64-Z. National Register of Legal Acts of the Republic of Belarus, 2009, No. 300, 2/1616. National Legal Internet Portal of the Republic of Belarus. Available at: <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=H10700220/>.

16. Legislationline, online legislative database. Available at: https://www.legislationline.org/download/id/8597/file/Georgia_law_prosecutors_office/.

17. Eriashvili M.I. Uchastie prokurora v grajdanskom protsesse [Participation of the prosecutor in the civil process]. Moscow, 2010, p. 47.

18. Turigin Y.N. Vzaimodeystvie prokuraturi Rossiyskoy Federatsii i nepravitelstvennix pravozashitnix organizatsiy po zashite prav i svobod cheloveka i grajdanina [Interaction between the Prosecutor's Office of the Russian Federation and non-governmental human rights organizations to protect the rights and freedoms of man and citizen]. PhD thesis. Moscow, 2012, p. 95.